



# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Samarqand viloyati  
kichik tadbirkorlik**  
**2022- yil yanvar-iyun**

# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining

YaHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **67,4** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida **6,5** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,0** foizga ko'p demakdir.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **3 142** ta, sanoatda **1 012** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **666** ta, qurilishda **207** ta, yashash va ovqatlanishda **648** ta, axborot va aloqada **120** ta, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **101** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



**2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 95,4



Sanoat 38,9



Qurilish 75,0



Investitsiya 59,7



Savdo 78,2



Xizmatlar 66,9



Eksport 46,3



Import 37,5



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**44 957**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**6 499**

**2022- yilning 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan va yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, ulushi % da**



■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar, % da

Savdo

38,9%



Sanoat

18,7%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9,0%



Qurilish

7,6%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

9,5%



Tashish va saqlash

2,7%



Axborot va aloqa

1,7%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,9%



Boshqa faoliyat turlari

10,0%



1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

1-iyul holatida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Toyloq	1 539	1 951	+412
Urgut	3 296	3 914	+618
Nurobod	1 106	1 386	+280
Samarqand	2 869	3 307	+438
Paxtachi	935	1 127	+192
Pastdarg'om	3 177	3 824	+647
Payariq	1 902	2 307	+405
Narpay	1 180	1 398	+218
Qo'shrabot	790	953	+163
Kattaqo'g'on	1 831	2 272	+441
Ishtixon	1 997	2 401	+404
Jomboy	1 474	1 858	+384
Bulung'ur	1 467	1 851	+384
Oqdaryo	1 499	1 926	+427
Kattaqo'g'on sh.	1251	1448	+197
Samarqand sh.	11268	13034	+1766

■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


Samarqand sh.	1294	1622	Narpay	173	192
Kattaqo'rg'on sh.	148	185	Payariq	138	313
Oqdaryo	281	336	Pastdarg'om	461	608
Bulung'ur	204	295	Paxtachi	177	191
Jomboy	216	292	Samarqand	409	507
Ishtixon	295	402	Nurobod	208	245
Kattaqo'rg'on	261	335	Urgut	419	517
Qo'shrabot	127	148	Toyloq	236	311

■ 2021 y. yanvar-iyun

■ 2022 y. yanvar-iyun

## 2022-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri – 29,0 %, Pastdarg'om tumani – 8,5 %, Urgut tumani – 8,7 %, Samarqand tumani – 8,0 %, Ishtixon tumani – 5,3 %, Oqdaryo tumani – 4,3 %, Kattaqo'rg'on tumani – 5,1 % hissalariga to'g'ri keldi.






# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

3 142 ta

Sanoatda

1012 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida


666 ta

Yashash va  
ovqatlanish  
bo'yich  
xizmatlar

648 ta


## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 146,0 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,3 % ini tashkil etdi.



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


**2022 yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahar, Bulung'ur, Qo'shrabot va Kattaqo'g'on tumanlarida – 100,0 %, Payariq tumanida 92,7 %, Oqdaryo 84,1 %, Urgut tumanida – 78,4 %, Jomboy tumanida – 48,2 %, Samargand tumanida – 43,3 % va Pastdarg'om tumanida – 34,6 %ni, eng past ko'rsatkich Paxtachi tumanida – 5,2 % ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **310,5** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **37,5 %** ni tashkil etdi.



**2022 yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Bulung'ur va Payariq tumanlarida-100,0 %, Paxtachi - 99,8 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 98,4 %, Ishtixon tumanida – 91,3 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 81,2 %, Urgut tumanida – 88,6 %, Oqdaryo tumanida – 89,7 %. Eng past ko'rsatkich Samarkand shaharida - 21,3 % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm**

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 044,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarkand shahri (1335,6 mlrd. so'm), Urgut (681,1 mlrd. so'm), Samarkand (571,4 mlrd. so'm), Jomboy (567,3 mlrd. so'm) va Toyloq (326,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (40,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,9 %** ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulung'ur, Qo'shrabot, (100,0%), Kattaqo'rg'on shahri (96,3%), Oqdaryo tumani (94,5%), Kattaqo'rg'on tumani (82,4 %), Urgut tumani (65,8%), Payariq tumani (63,8%), Samarkand tumani (62,7%), Pastdarg'om tumani (51,0%), Jomboy tumani (40,5%), Toyloq tumani (33,2%), Ishtixon tumani (31,4) ni tashkil etdi. Naripay tumani (16,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8 674,4** mld. soʼmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **78,2** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,8** % ga oʼsishi kuzatildi.

## 2022- yilning yanvar- iyun oylarida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarcand shahri (2392,9 mld. soʼm), Kattaqoʼgʼon shahri (740,4 mld. soʼm), Urgut (1004,9 mld. soʼm), Pastdargʼom tumani (557,0 mld. soʼm), Samarcand (496,8 mld. soʼm), Kattaqoʼgʼon (451,3 mld. soʼm) va Bulungʼur (439,8 mld. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.



hajmi, mldr. soʼm

oʼsish surʼati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 511,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **85,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **111,7** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (1282,8 mlrd. so'm), Oqdaryo (282,6 mlrd. so'm), Payariq (235,0 mlrd. so'm), Urgut (162,6 mlrd. so'm), Ishtixon (154,1 mlrd. so'm), Toyloq (151,5 mlrd. so'm), Jomboy (147,4 mlrd. so'm), Pastdarg'om (128,4 mlrd. so'm), Samarqand (122,3 mlrd. so'm), Kattaqo'g'on (94,8 mlrd. so'm) hamda tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati





## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 967,7** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,9** % ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,3** % ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Samarqand shahri (2092,3 mlrd. soʼm), Samarqand (625,4 mlrd. soʼm), Pastdargʼom (503,0 mlrd.soʼm), Urgut (547,8 mlrd. soʼm), Toyloq (370,9 mlrd. soʼm), Jomboy (342,0 mlrd. soʼm), Kattaqoʼrgʼon (340,9 mlrd. soʼm) va Oqdaryo (311,2 mlrd. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

### 2022- yilning yanvar- iyun oylarida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




## **2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari**


**2022- yilning yanvar-iyun oylarida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi, % da:**




**Yuk tashishda**



**Yuk aylanmasida**



**Yo'lovchi tashishda**



**Yo'lovchi aylanmasida**

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,2 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil qildi.

---

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

---

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,4 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

---

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.


## Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtaida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **1 836** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 809 (44,1 %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 922 (50,2%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 105 (5,7%)ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,7 % (97 ta), sanoatda – 16,3 % (299 ta), qurilishda – 7,9 % (145 ta), savdoda – 45,2% (829 ta), xizmatlar sohasida – 25,9 % (476 ta)ni tashkil etdi.

**2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar






## Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (594 ta), Samarqand (171 ta), Urgut (135 ta), Pastdarg'om (136 ta), Kattaqo'rg'on (107 ta), Ishtixon (107 ta), Toyloq (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



**2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



**2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 46,9%ni, xizmatlar sohasida 44,7 %ni, sanoatda 44,5 %ni, savdoda 43,9%ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,0 %ni, savdoda 52,0 %ni, sanoatda 48,2%ni, xizmatlar sohasida 44,7% ni va qurilish 44,1 %ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 56,6 %, savdo sohasida 51,6%ni, xizmatlar sohasida 52,7%ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 45,2% ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 40,2 % ni, sanoatda 44,1 % ni, xizmatlar sohasida 43,1 % ni, qurilishda 37,2% ni, tashkil etdi.

